



## XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr

VI-63-176-5-75-K/23

Tomdi tumani hokimligi

### Tomdi tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2023 yil 25 dekabrda O'RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2023 yil 28 dekabrda VI-66-128-5-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2023 yil 25 dekabrda O'RQ-886-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2023 yil "28" dekabrda VI-66-128-5-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2023 yil "28" dekabrda VI-66-128-5-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Tomdi tumanining tuman mahalliy budjetining 2024 yil uchun daromadlari 32574100,0 ming so'm, xarajatlari 64896317,0 ming so'mga tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2024 yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2024 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha tuman mahalliy budjetining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Tomdi tumani bo'yicha G'aznachilik bo'limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin;

2024 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

4-ilovaga muvofiq;

2024 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan

tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2024 yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g'azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024 yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 583132,0 ming so'm miqdorida belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

tuman budjetining 2024 yil uchun zaxira jamg'armasi tegishli budjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Belgilab qo'yilsinki, tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetining zaxira jamg'armasi miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

5. O'zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanilganligi uchun soliq;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i, tamaki va alkogol maxsulotlari, shu

jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq hisob- kitob qilinsin.

a) Tomdi tumanining tuman budjeti daromadlari tuman mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi.

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

Tomdi tumani mahalliy budjeti daromadlarining xarajatlaridan yuqori bo'lganligi inobatga olinib, Tomdi tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq viloyat va tuman budjetlari o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi;

b) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i viloyat budjeti hamda tuman budjeti o'rtasida taqsimlanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-409-sonli qaroriga asosan;

a) "Obod qishloq" dasturi doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portali orqali ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo'yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo'yilishi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo'shimcha mablag'larning 30 foizi tumanda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo'naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6,0 mlrd.so'm mablag' rejalashtirish belgilanganligi;

g) "Obod qishloq" dasturini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Umarov), Moliya bo'limi (Q.Igilikov), Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev) va mas'ul tashkilot, muassasalar bilan birgalikda:

tegishli budjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

8. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lolari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

mazkur yo'nalishda jaoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

Bunda, xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

Kadastr agentligi tuman bo'limi (O.Hamdamov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

9. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Umarov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev):

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

10. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (O.Madenov) ovul fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

11. Xalq deputatlari viloyat Kengashning mahalliy budjet, iqtisod islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Bayanasov):

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas‘ul etib belgilansin.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Umarov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (R.Sibayev), tuman moliya bo‘limi (Q.Igilikov):

tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas‘ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan ob‘yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

13. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Umarov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati va tegishli tashkilot, muassasa rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

14. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

15. Mazkur qaror "Тамды sharuageri" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

16. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

17. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlarituman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiyaga raislik qiluvchi**



**M.K.Bazarbayev**

Xalq deputatlari Tomdi tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-63-176-5-75-K/23-son  
qaroriga  
1-ilova

### 2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi

№	Daromad turi	Tomdi tumani
<b>I.</b>	<b>Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyuvchi) daromad</b>	<b>2 658 600</b>
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	26 586 000
	ajratma meyori	10
1.	mahalliy budjetga	2 658 600
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	10 619 000
<b>II.</b>	<b>Biriktirilgan daromadlar</b>	<b>29 915 500</b>
	<b>Tuman va shaharlarga biriktirilgan</b>	<b>6 205 000</b>
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	632 000
3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	5 000 000
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	573 000
	<b>Viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar</b>	<b>23 710 500</b>
1	Aylanmadan olinadigan soliq	813 000
2	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	315 000
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	87 106 000
4	Yuridik shaxslar yer solig‘i	31 609 000
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	47 421 000
	ajratma meyori	50
	mahalliy budjetga	23 710 500
6	Ijara to‘lovlari	4 000
7	Yig‘imlar	474 000
	<b>Viloyat budjetiga</b>	
1	Davlat bojlari	275 000
2	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i	35 000
3	Jarimalar	1 322 000
<b>III.</b>	<b>Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)</b>	<b>2 695 582</b>
	<i>Aholi soni (ming kishi)</i>	15 735
14.	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	1 168 447
15.	Tamaki maxsulotlariga aksiz solig‘i	1 056 482
16.	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	470 653
	<b>Jami daromadlar</b>	<b>32 574 100</b>
	<b>JAMI XARAJATLAR</b>	<b>64 948 619</b>

	<b>TRANSFERTLAR</b>	<b>32 322 217</b>
--	---------------------	-------------------



Xalq deputatlari Tomdi tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-63-176-5-75-K/23-son  
qaroriga  
2-ilova

**2024 yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag'larini  
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari**

ming

so'm

Ko'rsatkichlar		Tomdi tumani
	<b>Xarajatlar - jami</b>	<b>64 896 317,0</b>
1	- maktabgacha ta'lim	2 571 739,0
	- umumiy ta'lim	7 583 658,0
2	Sog'liqni saqlash	20 410 122,0
3	Madaniyat	1 712 648,0
4	Sport	2 461 894,0
5	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	65 152,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	10 500,0
6	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	4 000 000,0
7	Obodonlashtirish	5 254 238,0
8	Veterinariya qo'mitasi	1 834 597,0
9	"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari	88 200,0
10	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi	1 976 096,0
11	Tuman Soliq inspeksiyasi	2 523 229,0
12	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	2 240 146,0
13	Tuman Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi	1 224 397,0
14	Tuman xokimligi	2 445 120,0
	Tuman Xalq xabulxonasi	88 558,0
	Tuman Xokim yordamchilari	928 400,0
	Tuman oila va xotin qizlar bo'limi	601 637,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	292 854,0
	Zahira jamg'armasi	583 132,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	6 000 000,0

Xalq deputatlari Tomdi tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-63-176-5-75-K/23-son  
qaroriga  
3-ilova

## 2024 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

**Foizda**

<b>T/R</b>	<b>Tuman nomi</b>	<b>Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq</b>	<b>Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i</b>	<b>Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</b>	<b>Suv resurslaridan foydalan-ganlik uchun soliq</b>	<b>Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda</b>
1	Tomdi tumani	100	100	10	50	100

Xalq deputatlari Tomdi tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-63-176-5-75-K/23-son  
qaroriga  
4-ilova

## 2024 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

*ming soʻmda*

<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
Tomdi tumani	32 574 100,0	64 896 317,0

Xalq deputatlari Tomdi tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-63-176-5-75-K/23-son  
qaroriga  
5-ilova

**2024 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan  
tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori**

*ming so'mda*

<b>Tuman nomi</b>	<b>Tartibga soluvchi transfert miqdori</b>
Tomdi tumani	32 322 217,0

Xalq deputatlari Tomdi tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-63-176-5-75-K/23-son  
qaroriga  
6-ilova

**2024 yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g'azna hisob varaqlarida turgan budget  
mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori**

*ming so'm*

<b>T/R</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Miqdor</b>
<i>1</i>	Tomdi tumani	240 813,0